

## YANGI O‘ZBEKISTON JAMIYATIDA HUQUQSHUNOS-PEDAGOG KADRLARGA BO‘LGAN KOMPETENSIYAVIY TALABLAR

**F.A. Ibroximov**

CHDPU tayanch doktoranti

E-mail: [ibrohimovf2209@gmail.com](mailto:ibrohimovf2209@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi jamiyatimiz uchun har tomonlama yetuk kadr tayyorlashda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasini yuklsaltirish masalalariga munosib tarzda yondoshadigan huquqshunos-pedagoglarni tarbiyalash hamda “Yangi O‘zbekistonning yangi pedagogi” ega bo‘lishi talab etiladigan kompetensiyalar, ularni shakllantirish mexanizmlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, pedagogik kompetentlik, information kompetentlik, kreativ kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, ta’lim va tarbiya.

### KIRISH

Barcha zamonlarda ta’lim va tarbiyaning uzviyligiga erishish inson, davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim asosi bo‘lib kelgan. Shu bois, bu sohani tizimli va maqsadli yo‘naltirilishi shaxs, jamiyat va pirovardida mamlakatning barqaror rivojlanishi imkonini paydo qiladi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kun o‘qituvchisi universal mutaxassis, ham o‘rgatuvchi, ham o‘rganuvchi bo‘lishi, ya’ni, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, doimo izlanib yashashi kerak. Eng muhimi, o‘qituvchi chinakam vatanparvar inson bo‘lishi zarur. Qalbida o‘z kasbiga, Vataniga mehr va sadoqat kuchli bo‘lgan o‘qituvchigina haqiqiy vatanparvar shaxsni tarbiyalay oladi.[1] Har bir pedagogda o‘z kasbi va mutaxassisligi bo‘yicha munosib kompetensiyaning shakllanganligi hamda bunday kompetensiyaviy talablarning davlat va jamiyat tomonidan o‘z vaqtida qo‘yilishi, shuningdek, ularni shakllantirish uchun lozim darajada shart-sharoitlarning yaratilishi ayniqsa muhimdir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Kompetensiya tushunchasi (ingl. “Competence”- qobiliyat) faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni anglatadi.[2] “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘z ini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil

rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik deganda, mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi tushuniladi. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi: Ijtimoiy, shaxsiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kommunikativ va boshqalar), texnologik, eksterimal kompetentlik.

Zamonaviy huquq fani o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar ularda quyidagi kompetentlik sifatleri shakllanishi talabini qo‘yadi:

a) **Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’yektlar bilan muloqotga kirisha olish. Huquqshunos-pedagog boshqa soha vakillariga nisbatan ko‘proq ijtimoiy faollik talab etiladi. Masalan, barcha ijtimoiy sanalar, voqea-munosabatlar bilan talaba-o‘quvchilarni diqqatini o‘rganilayotgan mavzularga bog‘lagan tarzda birlashtira, jipslashtira oladigan tashabbusga ega bo‘lishida ko‘rinadi.

b) **Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baxolash, huquqiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni uzluksiz rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

- psixologik kompetentlik - pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta‘lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay va bartaraf eta olish;

- metodik kompetentlik - pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta‘lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

- informatsion kompetentlik - axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma‘lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

- kreativ kompetentlik - pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘z uning ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

- innovatsion kompetentlik – huquqiy pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta‘lim sifatini va samarasini yaxshilash doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

- kommunikativ kompetentlik - ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilari,

jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

**d) Shaxsiy kompetentlik** - izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, huquqiy bilimlarini boyitib borishi, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini to'la namoyon qila olish;

**e) Texnologik kompetentlik** - kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish. Xususan, huquqiy manbalar bilan ishlay olish, turli ijtimoiy tarmoqlardagi huquqiy axborot yangiliklarini, lex.uz, advice.uz kabi saytlarini muntazam kuzatib boorish ko'nikmasining shakllanganligi;

**f) Ekstremal kompetentlik** - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqanda), pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri xarakterlanish malakasiga egalik;

Yuqoridagi kompetensiyalarni munosib tarzda shakllantira olish, muntazam takomillashtirib borish bugungi kun pedagogi oldidagi muhim ma'suliyat hisoblanadi. Zero "Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir".

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan bu sohadagi islohotlarimizning huquqiy asoslarini takomillashtirib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" PF-5618-son Farmoni asosida "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Mazkur farmon huquqiy ta'lim sohasidagi bir qator muammo va kamchiliklarni bartaraf etish masalalariga e'tiborni qaratdi. Xususan,

- huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan;

- yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

- aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi[3].

### **XULOSA**

Qonunlarning bir xilda va so'zsiz bajarilishi har bir shaxsning o'z vazifasiga munosabati va zimmasidagi mas'uliyatni his qilishiga bog'liqdir.[4] Negaki, "Adolatli va yetuk, komil jamiyatni faqatgina komil insonlarni tarbiyalash orqali qurish mumkin.[5]

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat ijtimoiy ongning ajralmas va asosiy shakllaridan biri bo'lib, u shu jamiyatning farovonligi va mamlakat barqaror taraqqiyotining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Shu munosabat bilan huquqiy madaniyatni oshirish tizimining samaradorligi huquqiy ta'limning sifatiga, bu esa soha vakillarining o'zlariga qo'yilayotgan kompetensiyaviy talablarni qay darajada shakllantirishiga bog'liq. Ta'lim maskanlari bilan birgalikda, ta'limni boshqarish va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlari, turli jamoat birlashmalarining ham faolliklari shu sohalaridagi xodimlarning kasbiy kompetensiyalariga bog'liq.

Yuqoridagi kasbiy kompetensiyalarni barcha huquq fani o'qituvchilarida shakllantira olishimiz oldimizda qo'ygan maqsadlarimizga erishishimizda asosiy omil hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Sh.Mirziyoyev. 1-oktabr – "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati biln bayram tabrigidan. 2019-yil. ([president.uz](http://president.uz) sayti manbalaridan olindi).
2. Mualliflar jamoasi. "Pedagogik kompetentlik" fanidan o'quv-uslubiy majmua // Chirchiq - 2022. 6-bet
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" PF-5618-son Farmoni (<https://lex.uz/ru/docs/-4149765>)
4. Huquqiy yetuklik - barkamollikka eltadi."O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. -T.: Adolat 2011, 7-b
5. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent – 2021. 421-bet.